

GRAMMATIK TUSHUNCHANI O'ZLASHTIRISH USTIDA ISHLASH METODIKASI

Nodira Masharipova Raxmanovna

TAFU "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13292422>

Annotatsiya: O'quvchining til materiali va vositalarini nutqda qo'llay bilishi uchun yetarli bilimni o'zlashtirishi, muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish, badiiy, ilmiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazalarini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish talab etiladi. Bu borada ona tili ta'limida kommunikativ yondashuvni qo'llash, o'z tiliga oid bilimlarni puxta egallash ona tili sohasi oldidagi zaruriy vazifa hisoblanadi. Maqolada o'quvchilarning ona tili darslarida grammatik tushunchalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va buning natijasida yozma nutqiy xatoliklarning yuzaga kelishi, bunday kamchiliklarni oldini olish yo'llari, o'quv-topshiriqlarning o'rni, qo'llash usullari bo'yicha metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy jarayon, nutqiy ko'nikma, nutq o'stirish, grammatik tushuncha, leksik material, yozma nutq, o'quv-topshiriqlar.

1 KIRISH

Inson tafakkuri nutq orqali yuzaga chiqadi va uning natijasi tilda qayd etiladi. Kishilar o'rtasidagi aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda nutqiy jarayon muhim. Nutqiy jarayon ikki ko'rinishda amalga oshadi: og'zaki hamda yozma. Bu ikkala nutq bir-biri bilan chambrchas bog'liq. Og'zaki nutq bevosita muloqot jarayonida yuzaga kelsa, yozma nutq esa og'zaki nutqning har qanday vaziyatda oq qog'ozdag'i muallifning xayolidahi suhbatidir. Ona tili ta'limi bolaning tafakkur dunyosini og'zaki hamda yozma nutqida bayon qila olish, o'zgalar fikrini anglash, kishilar bilan muloqotga kirisha olish ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borishga xizmat qiladi. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivonlantirib borishda o'rganilayotgan material muhimdir. Bu material esa mukammal qilingan o'quv-topshiriqlaridir. "O'quv topshiriqlarini takomillashtirish, avvalo, ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari, umuman, mazmuniga bevosita bog'liq, zero o'quv topshirig'i o'quvchini fikrlashga, o'quv materiali ustida mustaqil ishlay olishga, zarur Nutqiy ko'nikma va malakalarni (matnni anglash, fahmlash, nutq so'zlash, Yozish) rivojlantirish uchun mashq qildira olishga, hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni qulay va aniq baholashga xizmat qilish kerak"¹. Agar material qanchalik to'liq, boy va qimmatli bo'lsa, uning bayoni ham, albatta, shunchalik mazmunli bo'ladi.

2 NUTQNI O'STIRISHDA TILGA OID BILIMNING O'RNI

Umumiyl o'rtalim maktablari ona tili darslarida mustaqil fikrlash, Nutqiy bilimlarni og'zaki va yozma tarzda to'g'ri ifodalash masalasi ustuvor mavqega ega. Xususan, A.G'ulomov, B.Qobilovalarning "Nutq

o'stirish mashg'ulotlari"², ona tili ta'lim mazmunida metodik va nazariy ta'lim bo'yicha tadqiqotchi olimlar R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, L. Raupova³, I.Azimova⁴, K.Mavlonova⁵ va boshqalar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar metodik muammolarni hal etishda muhim adabiy manbalar hisoblanadi. Nutqni o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratishdan iborat, chunki yaxshi nutq namunasi idrok etishga sharoit yaratadi hamda o'rganilgan til vositalaridan foydalaniib, o'z fikrini bayon eta oladi. O'rganilgan til vositalari esa tilga oid grammatik bilim, grammatik tushunchalarni o'zlashtirilishi bilan bog'liq. O'quvchi tilga doir qonun-qoidalarni yaxshi anglasagina, nutq bexato tuziladi. Har bir o'rganilayotgan material orqali o'quvchi ona tiliga oid bilimni egallay borishi zarur. Ishlab chiqilgan material zamirida tilga tegishli bilim yotsagina qo'yilgan maqsad amalga oshadi. O'quvchi til vositalarini grammatik tushunchalar orqali anglarkan, uning og'zaki nutqida ham, yozma nutqida ham bevosita xatolik uchramaydi. Bizga ma'lumki, bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, albatta. Qachonki, bola mакtab ta'limida ona tilining sir-asrorlarini (fanga oid bilim) o'rganar ekan, uning nutqi keng va mukammal tuzila boshlaydi. Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq vaqt davom etadigan jarayon va bu jarayon o'quvchilar uchun ham murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki grammatik tushuncha til hodisalarining muhim belgilari umumlashmasi hisoblanadi. O'qituvchi muayyan bir tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarda uning muhim belgilarini ajratib olmog'i kerak, dastur talabidan kelib

² A.G'ulomov, M.Qodirov Ona tili o'qitish metodikasi.– T.:O'qituvchi, 2001.

³ R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, L.R.Raupova Hozirgi o'zbek tili. Darslik. –Toshkent, 2002.

⁴ Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: F.f.n.dis. monografiya. –Toshkent, 2008.

⁵ K.Mavlonova Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish:ped.fan.dok. ...dis.–Toshkent, 2019.

¹ Хамроев Фоғир Ҳасанович Она тили таълимида ўкув топшириқларини ишлаб чиқишининг лингводидактик асосларини такомillashtiriш, aftoreferat,13-b

chiqqan holda o'quvchilarga tushunchaning qanday belgilari bilan tanishtirishi zarur. Foydalanganda ham samarali natija beruvchi leksik materialni, metod va usullarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Grammatik tushunchani o'zlashtirish boshlang'ich ta'lidan shakllanib boradi, dastur talabidan kelib chiqib o'rgatilinadi. Keyingi yillarda ta'lrim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar, ta'lrim mazmunini yangilash va takomillashtirishga oid hukumat qarorlari ta'limi hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Ona tili ta'limida ham tilga doir bilimni berish yo'llarini yangilash va uni takomillashtirib borish zarur. Albatta, buni amalga oshirishda o'qituvchidan katta bilim hamda mahorat talab etiladi. Tilga oid bilimni berishda o'qituvchi grammatik bilimga va uni bera olish usullariga ega bo'lmog'i kerak. O'quvchi o'za tilining grammatik qonun-qoidasini to'g'ri anglay olsagina, fikrini to'g'ri tuza oladi, nutqida kamchiliklarga yo'l qo'ymaydi. Grammatika tilning o'lchovi ekan, uni o'rganishda bir qancha mukammalliklar zarur, ya'ni nazariy bilimni amalda qo'llay olishdir.

3 METODIK TAVSIYALAR

Maktab sharoitida daslabki nutqni rivojlantiruvchi material bu – berilgan savolga javob bera olishi. Agar beriladigan savol bolaning mantiqiy fikrlashga undasa, topshiriqni to'g'ri berishning ilk qadami deya olamiz. O'ylashga majbur qiladigan savollar o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda muhim vositadir.

Topshiriq. O'quvchilarga quyidagi savollarni berish orqali mantiqiy fikrlashlarini oshiradi.

Savol: 1. Odam 4 ta narsani yo'qtigandan keyingina qadriga yetarkan. Bular...

2. Insonni abgor (nochor, xarob) qiluvchi, ya'ni yemirib boruvchi xususiyat?

Shunga o'xhash Savollar ro'yxatini davom ettirish mumkin. Salollarga javobni og'zaki yoki yozma tarzda berilishi o'qituvchiga bog'liq.

Yozma nutqda o'quvchilarning eng ko'p imloviy xatolik turiga kiruvchi h va x harflarini yanglish holatda qo'llashlari hisoblanadi. Chunki o'quvchi h, x harflariga oid grammatik tushunchani yaxshi anglamaganligidadir. Hosil bo'lish o'rniغا ko'ra X undoshi – til undoshi ekani, h esa bog'iz undoshi ekanligini yaxshi anglashlari, qattiq yoki yumshoq tovush deyilishi emas, balki qoida asosida bittasi tilda, bittasi bo'g'izda talaffuz qilinishini to'g'ri ajrata olsagina, bundan tashqari imlo lug'ati orqali to'g'ri talaffuz etilsagina, o'quvchi ikkala harfni yanglish holatda qo'llamagan bo'lardi. Afsuski, tan olish kerakki hatto o'qituvchini ham ba'zan chalg'itadigan ushbu harflarning o'rgatilinishidagi noto'g'ri yondashuvdir. Misol uchun, xijolat va haqiqat so'zlarini oladigan bo'lsak, birinchi o'rinda o'qituvchi o'quvchilarga "taqqoslash" metodi orqali tushuntirib berishi kerak.

xijolat	haqiqat
til undoshi	bo'g'iz undoshi
chuqur til orqada talaffuz qilib qiyoslash	bo'g'izda talaffuz qilish orqali qiyoslash
bo'g'izda aytish orqali nomutanosiblikni taqqoslash	Chuqur til orqada aytish orqali nomutanosiblikni solishtirish

Buning uchun o'qituvchining o'zi to'g'ri talaffuz qilishi, bolalarga bir nechta so'zlar orqali taqqoslab berishi, diktant so'zlar olishi va bu jarayonda talaffuz orqali o'quvchining ajrata olishi natijasida savodsizlikning oldi olinadi. O'quvchi yumshoqmi yo qattiqmi deb ikkilanganidan ko'ra nutq a'zolarining ishtirokiga ko'ra ajratishi ancha qulaydir. Bora-bora o'sha to'g'ri yozilgan so'z xotirada muhrlanadi hamda to'g'ri talaffuz qilinadi.

Xokandoz	Hamnafas
Xodim	Halol-harom
Xalaqit	Husndor
Xush(ma)'no orqali farqlash)	Hush(paronimlarni faqlash0
Shox	Shoh

Shu kabi diktant so'zlarni darslar davomida olib turilishi, o'quvchilarning yozma nutqidagi imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilishining oldini oladi, bundan tashqari paronimlar orqali solishtirish gap va matnlarda o'quvchining so'zni to'g'ri tanlovini yuzaga keltiradi. Ko'rishimiz mumkinki, yuqorida misollar o'quvchilarning grammatik tushunchani yaxshi o'zlashtirishi yozma hamda og'zaki nutqqa qay darajada ta'sir qilmoqda, grammatik ta'rifni o'zlashtirishi bilan bog'liq holda kechmoqda. "O'zbek tili mazmunida tilshunoslikning ilmiy asoslarini o'rgatish, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi"⁶. Faqat mana shu nazariy qismni o'quvchiga yetkazib berish usulini, o'qitishga doir yondashuvni biroz o'zgartirish lozim. O'quvchi grammatik qoidani yodlab olmashtdan, o'zi mustaqil ravishda "kashf etishi"ga erishish lozim, ya'ni qoidani idrok qilishi, tushunishi – bilimga ega bo'lishi, egallangan bilimni qo'llay olsagina maqsadga erishilgan bo'ladi. Olima M.Abduraimova shunday ta'kidlaydi: "grammatizmga asoslangan o'qitish usuli o'quvchi-yoshlarning ko'pchilik qismida ijodiylik, mustaqil fikrlash, vaziyatga qarab fikr ifodalash ko'nikmalarining past bo'lishiga olib keldi. Mavjud holat ko'p jihatdan ona tili ta'liming maqsadi,mazmuni va usuliga aloqador bo'lib, uni yangilash hayotiy zaruratga aylandi"⁷. Darhaqiqat, eski va yangi darsliklarni qiyoslaydigan bo'lsak, eski darsliklarda grammatik qoidalarga ko'proq urg'u qaratilgan o'qitilish tizimida ham bir xil qolipda qotib qolining edi, yangi darsliklarda esa grammatik

⁶ L.R.Raupova L.Raupova O'zbek struktural tilshunosligi asosları. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsiya-ziyo", 2019.

⁷ M.Abduraimova. Ona tili ta'limi takomili. "Ta'limi taraqqiyoti". O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi axborotnomasi. 2001-yil 3-4-son 66-69-betlar

qoidadan oldin, material ustida ishlanadi, ya’ni o‘quvchi o‘rganilayotgan grammatic tushunchani topshiriqlar asosida tasavvur qilinib, keyingina tasavvurdagi bilim qoida asosida mukammallashadi, xulosalanadi. Ya’ni tilga oid bilimlar topshiriqlar orqali berilib, umumiy bilimlar esa grammatic qoidalar orqali o‘rganilayotgan tushuncha mustahkamlanadi.



“Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida axborot matnini yozing.



Bo’sh o‘rinlarni kerakli so‘zlar bilan to’ldirib, gaplarni o‘qing. Berilgan gaplarda sifatning qanday darajalari qo’llanayotganini aniqlang va ularni izohlang.

Qo‘yish uchun so‘zlar: eng quay, eng issiq, pastroq, eng past, yuqoriroq.

Yerdagi ... havo harorati 1983-yil 21-iyulda Antarktidaning “Vostok” stansiyasida qayd etilgan, o‘sanda maxsus termometr -89.2°C ni ko‘rsatgan. Bu meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past haroratdir.

... havo harorati 1922-yilda Liviyyada qayd etilgan. Unga ko‘ra, Yerdagi eng yugori harorat $+57.8^{\circ}\text{C}$ deb belgilangan.

Inson uchun ... harorat $+20...+25$ daraja.

Yer yuzidagi insonlar o‘rtacha havo harorati -50 va $+50$ daraja oraliqdagi sharoitda yashay olishi mumkin, lekin ayrim hududdagi insonlar -50 darajadan ... va $+50$ darajadan ... ko‘satikichlarga ega sharoitda ham jon saqlay oladilar.



Belgi bildiruvchi so‘zlar darajalish xususiyatiga ega.

Sifatning quyidagi to‘rt xil darajasi mavjud:

1. Oddiy daraja: issiq, kuchli.

2. Qiyosiy daraja: ko‘cha xonadan issiqroq; Aziz Tolibga nisbatan kuchli.

3. Ortirma daraja: juda issiq, eng kuchli, lang ochiq, yan-yashil, bus-butun, kap-katta, to‘ppa-tog‘ri.


4. Ozaytirma daraja: sal issiq, biroz kuchli, picha ustun, xiyol qiyin, nimpushti, och sariq, ko‘kimtir, ko‘kish, ko‘kchil.

Belgini bildiruvchi so‘zlarning ayrimlariga -roq qo’shimchasini qo’sha olmamyz.

Bunday so‘zlar daraja ko‘rsatish imkoniyatiga ega emas: tonggi, samoviy, farzandli.

8

Ikkinchisi tomonini ham hisobga olish zarur. Darslikda keltirilgan grammatic qoidani o‘quvchiga yetkazib berishda berilayotgan topshiriq yoki qoidadan tashqari o‘qituvchi bilimi hamda mahorati muhimdir. Berilgan tushunchani o‘quvchilarga tushuntirib berish, o‘rganilayotgan bilimni yetkazish usullarini yetarlichcha bilmasa, darsga qo‘ylgan ta’limiy maqsad amalga oshmaydi. O‘qituvchi yangi bilimni berishda darslikdan tashqari o‘zi qo‘llaydigan usullar ham muhim. Masalan, sifat mavzusini o‘rgatishda “Meni o‘chir” metodidan foydalaniishi mumkin. Bunda o‘qituvchi barcha so‘z turkumlariga oid so‘zlarni aralash holatda yozib chiqadi, o‘quvchi berilgan so‘zlar ichidan belgini bildiruvchi so‘zlarni topib, belgilab chiqishlari kerak. Ushbu metod taqqoslash, farqlash qobiliyatini yanada takomillashtiradi. Bu metodni doskada ham bajartirilsa, yanada qiziqarli bo‘ladi.



4 XULOSA

Ona tili ta’limida grammatic tushunchalarni o‘rgatishda topshiriqlarni mukammal berilishi, hozirgi davr o‘quvchisini oson o‘zlashtirishi va to‘liq qiziqtira olishi kerak. Bunda, albatta, o‘qituvchidan katta mehnat, bilim, metodika talab etiladi. Tushunchani o‘rgatishda o‘qituvchi oson yetkazish mexanizmini ishlab chiqishi, o‘quvchi xotirasida saqlanib qolishi uchun mustahkamlash va takrorlash jarayonini mintazam yo‘lga qo‘yishi, darslikda berilgan topshiriqlardan tashqari qo’shimcha topshiriqlarni ishlab chiqishi (bu albatta, o‘z ustida yanada ishalshga hamda izlanishga olib keladi), tushunchani o‘zlashtirishda qiyinchilikni yuzaga keltirayotgan sabablarni o‘rganish va uni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqmog‘i lozim. O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishga asoslangan topshiriqlarni berishda mavzuni qamrab olishi, bilimlarni yanada mustahkamlashiga qarab ishlab chiqilishi zarur. Berilayotgan topshiriq mavzuni qanchalik qamrab olsa, o‘rganilayotgan Tushuncha o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladi.

ADABIYOTLAR:

- 1) Ҳамроев Софир Ҳасанович Она тили таълимида ўқув топширикларини ишлаб чиқишининг лингводидактик асосларини таомиллаштириш, aftoreferat, 13-b.
- 2) A.G’ulomov, M.Qodirov Ona tili o‘qitish metodikasi.– T.:O‘qituvchi, 2001.
- 3) R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, L.R.Raupova Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. –Toshkent, 2002.
- 4) Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: F.f.n.dis. monografiya. –Toshkent, 2008.
- 5) K.Mavlonova Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish:ped.fan.dok. .dis.–Toshkent, 2019.
- 6) L.R.Raupova L.Raupova O‘zbek struktural tilshunosligi asoslari. O‘quv qo’llanma. T.: “Innovatsiya-ziyo”, 2019.
- 7) M.Abduraimova. Ona tili ta’limi takomili. “Ta’lim taraqqiyoti”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi axborotnomasi. 2001-yil 3-4-son 66-69-betlar.
- 8) 6-sinf Ona tili. Darslik. - Toshkent , 2022, 38-bet.

⁸ 6-sinf Ona tili darslik, Toshkent – 2022, 38-bet.